

# Teri Kasalliklari

---

# 15

BOB

Ba'zi teri xastaliklari teri zamburug'i, chov bichilishi va so'gal kabilar natijasida kelib chiqadi va faqat teriga ta'sir qiladi. Ba'zilari esa qizamiq toshmasi va pellagra(vitamin yetishmasligining bir turi) kasalligining natijasida og'riqli va quruq dog'lar singari o'zgarishlar boshlanib, ular butun tanaga ta'sir qiladi. Ma'lum turdagi yaralar yoki teri muammolari esa sil, zaxm yoki moxov kabi jiddiy kasalliklar belgisi bo'lishi mumkin.

Bu bobda biz qishloq sharoitida ko'proq uchraydigan oddiy teri kasalliklari haqida fikr yuritamiz, xolos. Lekin teri kasalliklarining yuzlab turlari mavjud. Ularning ba'zi turlari bir-birlariga shunchalik o'xshaydi-ki, ularni ajratish qiyin, lekin sabablari va davolashlari turlicha bo'lishi mumkin.

**Agar teri xastaligi jiddiylashsa yoki davolasangiz ham, yomonlashib borsa, tibbiy yordamga murojaat qiling.**

## TERI XASTALIKLARINI DAVOLASH BO'YICHA UMUMIY QOIDALAR

Ko'pgina kasalliklarga mahalliy, ya'ni faqat terining o'ziga mo'ljal-lab davo qilinsa-da, lekin ba'zan umumiy davolash usullari ham yordam beradi:


## 1- Qoida

Agar terining biror joyi qizarib og'rib turgan yoki yiring to'playotgan bo'lsa, uni **issiqlik** bilan davolang. **Issiq**, namlangan sochiqni ustiga qo'ying (*issiq kompres*)



## 2 - Qoida

Agar terining biror joyi qichishsa, sanchisa yoki undan toza suyuqlik oqsa, sovuqlik bilan davolang. **Sovuq**, ho'llangan sochiqni jarohat ustiga qo'ying (*sovuq kompres*)




## 1- QOIDA (batafsilroq)

**Agar terida quyidagilar bo'lsa:**

- yalig'lanish (qizarish yoki shikastlangan joy atrofining qorayishi)
- shish
- og'riq
- issiqlik (o'sha joy qizisa)
- yiring singari jiddiy infeksiyalar belgilari paydo bo'lsa.

**Quyidagilarni bajaring:**

- Teri yarasi bor joyni harakatlantirmang va yuqoriroq ko'tarib qo'ying (uni boshqa tana a'zolaridan teparoq tuting).



## Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013


- Issiq, namlangan sochiqni qo'ying.
- Agar infeksiya og'ir bo'lsa yoki kasalning isitmasi chiqsa, antibiotiklar (penitsillin, eritromitsin yoki sulfanilamidlardan) bering.

Limfa tugunlarining shishib chiqishi (bez kelishi), yara atrofida qizil yoki qoramtir chiziqlar paydo bo'lishi yoki sassiq hid kelishi xatarli belgilardir. Agar bular davolash jarayonida barham topib ketmasa, antibiotiklar ishlatilgani va tibbiy yordamga tez murojaat qiling.

### 2-QOIDA (batafsilroq)

Agar teri yarasi bor joyda pufakchalar paydo bo'lsa yoki bu joy qattiqlashib, yiring yoki suyuqliklar to'plansa, qichishsa, sanchib og'risa yoki qizisa, quyidagilarni qiling:

- ◆ Oqsirka(uksus) qo'shilgan sovuq suvga ho'llangan sochiqni qo'ying (1 litr qaynatilgan suvga 1 choy qoshiq sirka).
- ◆ Yara tuzalsa va yangi teri qalinlashsa yoki ko'cha boshlasa, uni yumshatish uchun ustiga o'simlik yoki eritilgan qo'y yog'i surting.




## 3-QOIDA

Agar yara oftob tushib turadigan joyda bo'lsa, uni oftobdan saqlang.



## 4-QOIDA

Agar yara kiyim yopib turadigan joylarda bo'lsa, uni kuniga 2 yoki 3 mahal, 10 minutdan 20 minutgacha oftobga tuting.




## ISSIQ KOMPRESSLARNI ISHLATISH QOIDALARI

1. Suvni qaynating va qo'lingiz kuymaydigan bo'lguncha sovuting.



2. Toza sochiqni davolamoqchi bo'lgan yarangizdan biroz kattaroq qilib taxlang, issiq suvga uni namlang va ortiqcha suvini siqib tashlang.




3. Sochiqni yara ustiga qo'ying.




4. Mato ustini yupqa sellofan plyonka bilan o'rang.



5. Uning ustidan issiqlikni saqlash uchun kuruq sochiq bilan o'rang.



















6. Yarali joyni teparoq qilib tuting.









7. Mato soviy boshlaganda, uni issiq suvga qayta soling va bu amalni yana qaytaring.

TERI KASALLIKLARINI ANIQLASHGA DOIR  
YO'L-YO'RIQLAR








AGAR TERIDA VA QUYIDAGILARGA O'XSHASA QUYIDAGILAR BO'LSA:	SIZDA BO'LISHI MUMKIN	BETGA QARANG		
	Juda kichkina, ko'p qichishadigan o'simta yoki yaralar, oldin barmoqlar orasida, bilak yoki belda paydo bo'ladi		qo'tir	379
kichik yoki husnbuzarga o'xshash yaralar	Yiringli yoki qizargan bo'jama yoki yaralar, ko'pincha hashoratlar chaqqan joyni qashlashdan kelib chiqadi. Limfa tugunlarni shishishiga olib kelishi mumkin.		bakteriyadan infeksiyalanish	381
	Tarqalib ketadigan yaltiroq sariq po'stli yaralar		sachratqi (bakterial infeksiya)	383
	Yoshlar yuziga, ba'zan ko'krak va orqalariga chiqadigan, ko'pincha oppoq yiringli bo'jamalar		bo'jama, husnbuzar	396
	jinsii organdagi yara		qichishmaydi og'rimaydi	zahm, tanosil limfopatiya, jinsiy herpes yoki 439 441
			og'riqli va yiringli	yumshoq shankr (444) kuydirgi 444
	qizil, qichishadigan, chiziqlar		g'umbak (qurtlar)	405
	o'suvchi bo'jamalar, og'riqsiz qora qasmoqlar, og'riqsiz qichishishi ham mumkin		kuydirgi	406







katta, ochiq teri yarasi	<p>Venalar shishgan (turtib chiqqan) katta yoshli odamlarning to'pig'i va uning atrofida paydo bo'lgan tevaragi ko'karib turgan, ha deganda tuzalavermaydigan yara.</p> 	qonning yomon aylanishdan kelib chiqqan yaralar (qandli diabet bo'lishi mumkin)	399
	<p>Yotgan joyidan tura olmaydigan og'ir kasal odamlarning suyak va bo'g'imlari botishidan paydo bo'ladigan yaralar</p> 	yotoq yaralari	400
	<p>Oyoq yoki qo'ldagi sezmaydigan yaralar. (Ularga igna sanchilganda ham og'rimaydi.)</p> 	moxov qandli diabet	359
	<p>Tana yoki yuzning biror bo'rtib chiqib so'ng uning tuzalmaydigan yaraga aylanishi.</p>	leyshmanioz	747





teri ostidagi bo'rtmalar	<p>Og'rib turadigan iliq, keyinchalik yorilib, yiring oqishi mumkin bo'lgan shish</p> 	abscess (ho'ppos)	384
	<p>Iliq, og'riqli shishning emizikli ayolning ko'kragida paydo bo'lishi</p> 	mastit (bakterial infeksiya), rak bo'lishi ham mumkin	504 505
	<p>Oldiniga og'riqsiz bo'lgan, o'suvchi shish</p> 	rak (shuningdek limfa bezlariga qarang)	505 186







<b>AGAR TERIDA QUYIDAGILAR BO'LSA:</b>	<b>VA QUYIDAGILARGA O'XSHASA</b>	<b>SIZDA BO'LISHI MUMKIN</b>	<b>BETGA QARANG</b>
	<p>Bo'yinning bir tomonidagi tugunlarning doimiy ravishda yorilishi va chandiqlanishi</p> 	limfa tugunlar sili	397
	<p>Chov limfa tugunlarining yorilishi va chandiqlanishi</p> 	tanosil(venerik) limfopatiya yumshoq shankr	437 439



# Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

katta qoramtir dog'lar	Homilador ayollarning peshonasi yoki betlarida qoramtir dog'lar paydo bo'lishi		homiladorlik belgilari	391	
TO'Q	Qo'l, oyoq, bo'yin yoki betdagi quyoshdan kuygan-ga o'xshash tangachali, yorilayotgan joylar		pellagra (chillashir), ovqatga yolchimaslikning turi)	392	
	Bolalarning shishgan oyoqlarida archiladigan yaralar yoki siyoh rang dog'larning paydo bo'lishi.		ovqatga yolchimaslik	392	
OQ	Yuz yoki tanadagi doira yoki boshqa shakldagi dog'lar, ayniqsa, bolalarda		rangli temiratki (zamburug'li infeksiya)	388	
	Ayniqsa, qo'l, oyoq yoki lablarda oq dog'lar bo'ladi		Boshqa belgilsiz boshlanadi	pes faqat rangning yo'qol-ishidir	391

	Yosh bolalarning betlari yoki tizzalarining orqasi va bilaklaridagi qizg'ish yoki suv boylagan pufakchali dog'lar		ekzema (gush)	403
	Qizg'ish, issiq, og'riqli tez tarqaladigan dog'lar		saramas yoki sellyulit	398
	Bola oyoqlari orasidagi qizg'ish joy		siydikdan yoki issiqdan chov bichilishlari	402
	Terining bukiladigan joylarida go'shtdek qizil dog'larning ustida sutdek oppoq po'st bo'lishi		kandidamikoz (po'panak) (zamburug'li infeksiya)	404
qizg'ish yoki kulrang	Ayniqsa, tirsak va tizzalarda paydo bo'lib ozgina ko'tarilib turadigan qizg'ish yoki kulrang surunkali, dog'lar, ularda kumush tangachalar paydo bo'lishi.		psoriaz (tangachali temiratki) yoki ba'zan sil	404 397












so'gal 	Oddiy so'gal, juda katta emas		oddiy so'gal (virus sababli)	394
	Erkak va ayol jinsiy organlari yoki orqa peshov atrofidagi so'galga o'xshash o'simtalar.		jinsiy so'gallar	442
	Ko'pincha qo'l yoki oyoqlarda bo'ladigan katta (1sm. dan kattaroq) so'gallar.		teri sili kasalligining turlaridan biri	396

	Kattalashadigan yoki tarqaladigan va qichishishi mumkin bo'lgan kichik doiralalar.		ekzema (gush)	403
“uzuklar” doirasimon (qirg'oqlari o'sgan yoki qizargan o'rtasi ko'pincha toza dog'lar)	Qirg'oqlari qalin qichishmaydigan katta doiralalar		zahmning yuqori darajasi	439
	O'rtasida sezgi yo'q kattaroq doiralalar, (Hatto igna bilan sanchilganda ular og'rimaydi)		moxov	359
	Chakka, burun yoki bo'yindagi kichik doirasimon dog'lar, ba'zan o'rtalari ichkariga kirgan.		teri raki	396

toshmalar 	Juda qattiq qichishadigan toshma, shishlar yoki dog'lar. (Ular birdan paydo bo'lib, so'ng yo'qolib ketishi ham mumkin.)		allergik reaksiya	384
-------------------------------------------------------------------------------------------------	-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-------------------------------------------------------------------------------------	-------------------	-----




# Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

 pufakchalar	Shishgan, qattiq qichishadigan, suyuqlik oqadigan pufakchalar.		teriga zaharli moddalar tushishidan boshlanadigan dermatit	386
pufakchalar	Badanda kichik pufakcha paydo bo'lishi va isitma chiqishi		suvchechak	557
	Tananing faqat biror qismida paydo bo'ladigan og'riqli pufakchalar, ular ko'pincha yo'l-yo'l yoki to'plam holda bo'ladi.		belbog' (o'rab oladigan) temiratki	387
	Qora tusga kirib, bad bo'y hid chiqarib turadigan havoli pufakchalari bor joy		qorason (juda jiddiy bakterial infeksiya)	399
 butun tanadagi toshma yoki kichik qizil dog'lar isitma bilan	Juda kasal bolaning butun tanasi bo'ylab tarqalgan toshma.		qizamiq	588
	Bir necha kungi isitmadan so'ng bir-necha kichik pushti dog'larning tanada paydo bo'lishi va odamning juda qattiq kasallanishi.		ich terlama	355

## QO'TIR

Qo'tir bir zamonlarda, ayniqsa, bolalar orasida ko'p uchrar edi. U tana bo'ylab tarqaladigan kichik shishlarni keltirib chiqaradi. Bu shishlar juda qattiq qichishadi. Ular ko'proq bo'ladigan joylar:



Qo'tir juda kichkina kana yoki tropik burgalarga o'xshaydigan hashoratlarning teri ostida yo'l qilayotganidan kelib chiqadi. Bu kasallik, kasallangan joyga tegish yoki kiyim va yotoq orqali yuqadi. Qashlaganda infeksiya tushib, yiringli yaralar paydo bo'lishiga va ba'zan limfa bezlarning shishib chiqishi yoki isitmalashga olib kelishi mumkin.

### **Davolash:**

- ◆ Agar oilada birortasining qichimasi bo'lsa, barcha oila a'zolari davolanishi kerak.
- ◆ Shaxsiy tozalikka rioya qilish birinchi o'rinda turishi kerak. Har kuni cho'milib, ustboshlaringizni almashtiring.
- ◆ Infeksiya tushishi va tarqalishidan saqlanish uchun, tirnoqlaringizni kalta olib turing.

## Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

- ◆ Barcha kiyim va choyshablaringizni yuving yoki ularni qaynatib quyoshda quritsangiz yana ham yaxshi bo'ladi.
- ◆ „Sernaya maz(surtmasi)” ni 3 kun davomida kuniga 3 mahaldan ishlating yoki 1 qism oltingugurtga 10 qism o'simlik yog'i qo'shib, uni maz o'rniga ishlating. 20 % li Benzil benzoat kremi (674-bet) yoki Oltingugurt-Salitsilat mazi bilan ham davolash mumkin.

### BIT



Bitning 3 turi mavjud: bosh biti, kiyim biti va chov biti. Ular tananing tukli joylarida yashaydi. Bitlar qichishish, teri infeksiyalari va ba'zan limfa bezlarining shishishiga olib keladi. Bitdan saqlanishning eng yaxshi yo'li, shaxsiy tozalikka katta e'tibor berishdir. Kiyim va choyshablarni tez-tez yuvib, oftobda quriting. Tez-tez cho'milib, sochingizni yuving. Bolalarning boshini tekshirib turing. Agar ularning biti bo'lsa, o'sha zahotiyoq ularni tozalab, yo'qoting. Biti bor bola boshqa bolalar bilan yotmasligi kerak.



### **Davolash:**

**Bosh va chov bitlari bo'lsa:** Siz boshingizni doim sovun yoki shampun bilan 10 minut davomida yaxshilab yuvib bitlardan dorilarsiz qutulishingiz mumkin. Yaxshilab chayqang va mayda tishli taroq bilan tarang. 10 kun davomida har kuni shunday qiling.

◆ Permetrin (Nittifor, Zebrik) yoki Piretrin (Piperonid 3%, Rid, Anti-bit) foydali va xavfsizdir. (674-betga qarang).

◆ Bit tuxumlari (sirka)ni yo'qotish uchun, sochni sirka qo'shilgan iliq suvga soling (10 qism suvga 1 qism sirka), u 30 minut davomida ho'l holda tursin, so'ng mayda tishli taroqda yaxshilab tarang.




**Kiyim biti bo'lsa.** Har kuni 10 kun davomida issiq suvli vanna qabul qiling. Vannadan chiqqandan so'ng, hamma ich kiyimlaringizni yaxshilab sovunlab yuving va chayqang, keyin dazmollang. Har qanday tukli joylar uchun mayda tishli taroq ishlating. Agar kerak bo'lsa, qo'tir kasalligi kabi davolang. Kiyim va choyshablarni toza tuting.

### BURGALAR VA TAXTAKANA(QANDALA)LAR



Bu juda mayda, yapaloq, o'rmalab yuradigan hashoratdir. Ular ko'rpa, choyshab, uy anjomlari va devor yoriqlarida berkinib oladi. Ular ko'pincha kechasi chaqadilar. Ular chaqqan joylar to'plam yoki yo'l-yo'l bo'lib shishib chiqadi.



Burga va taxtakanalarni yo'qotish uchun choyshablarni yuving va karavotga qaynoq suv bilan kamida 20 minut quying. Ko'rpa, kiyim turadigan mebel, gilam va sholchalarga oltingugurt seping va 3 hafta davomida ularni ishlatmang. Ularni qayta ishlatishdan oldin yaxshilab qoqib tashlang. Burgalar va taxtakanalarni karavotga chiqmasligi uchun, siz yotadigan joyingizni, karavotga, ko'rpalarga, yostiqlarga va choyshablarga 2 qism suv, 2 qism spirt va 1 qism sovundan tayorlangan suyuqlikni purkang. Bu muolajani, ikki hafta davomida bir necha marta qilishingiz mumkin.

Burga va taxtakanalar paydo bo'lishining oldini olish uchun choyshab, ko'rpa, karavotlarni tez-tez oftobga toblab turing.

### KANA

Ba'zi xavfli infeksiya va shol kasalliklari kana orqali tarqaladi. Bunday xatardan holi bo'lish uchun bir necha soatlik vaqtni ayamay, uy-joylarni ehtiyotkorlik bilan obdon tozalab olish kerak. Shunday qilib, kana bor joylarda yurib kelgan bo'lsangiz butun badan va kiyimlaringizni yaxshilab tekshiring.

Badanga qattiq yopishib olgan kanani olayotganda uning boshi teri ichida emasligiga e'tibor bering, chunki bu infeksiyaga olib kelishi mumkin. Hech qachon kanani tanasidan tortmang. Kanani olish uchun:

## Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

◆ Teriga yopishib turgan kanani iloji bori-cha og'ziga yaqinroq joyidan pinsept bilan san-chilib turgan joyini qimching. (Shishgan qornini ezmaslikka harakat qiling.) Kanani asta, ammo qattiq torting. Olingan kanaga qo'lingizni urmang. Uni yondirib tashlang yoki ustiga spirt tomizing.



Juda kichkina kana va burgalarni olish uchun qo'tir (379 -bet) xususida qilnadigan davolash usullarini ishlating. Qichishish yoki kana chaqishidan kelib chiqqan og'riqlarni yo'qotish uchun, 384-betda aytilgan usullardan foydalaning va aspirin iching.

Kanalardan saqlanish uchun dala va o'rmonlarga ketayotganda o'zingizga oltingugurtdan biroz sepib oling. Ayniqsa, to'piq, bilak, bel va qo'ltiq taglariga seping.

## YIRINGLI KICHIK YARALAR

Yiringli kichik yaralar, ko'pincha hashoratlar chaqqan, tiralgan, shilingan joylarni kir tirnoqli qo'llar bilan qashlashdan kelib chiqadi.

### ***Davolash va oldini olish.***

◆ Qaynatib sovutilgan suv bilan yaralarni yaxshilab sovunlab yuving, qora qo'tirlarni asta yumshating. Har kuni yiring yo'qolib ketgunga qadar shunday qiling.

◆ Kichik yaralarni ochiq qoldiring. Kattalari-ni esa bog'lab qo'ying va bog'lamni tez-tez yangi-lab turing.

◆ Agar yara atrofi qizib turgan bo'lsa, odamda isitma bo'lsa, yaradan qizil yo'llar chiqqan yoki limfa tugunlari shishgan bo'lsa, pen-itsillin (629-bet), T-iseptol tabletkalari (641-bet) kabi antibiotiklardan ishlating.

◆ Qashlamang. Bu yaralarni yomonlashti-radi va organizmning boshqa qismlariga infeksiya o'tishiga olib keladi. Kichkina bolalarning tirno-



qlarini juda kalta qilib oling. Qo'llariga yaralarni qashlamasliklari uchun qo'lqop yoki paypoq kiygizib qo'ying.

◆ Yaralari yoki teri infeksiyasi bor bolalar, boshqa bolalarni ush-lashiga yoki ular bilan o'ynashiga yo'l qo'ymang. Bu xildagi infeksiyalar oson tarqaladi.

### SACHRATQI (IMPETIGO)

Bu bakterial infeksiya bo'lib, usti sariq tusli yaltiroq po'st bilan qoplangan tez tarqaluvchi yaralar toshishiga olib keladi. Yaralar odatda bolalarning betlari, ayniqsa, og'izlari atrofiga toshadi. Impetigo shu yaralar yoki kasallangan qo'llar orqali osongina boshqa odamlarga yuqishi mumkin.



#### **Davolash:**

- ◆ Qaynatib, sovutilgan suv bilan yara joyni kuniga 3-4 marta sovunlab yuving va yara betini asta iviting.
- ◆ Har yuvgandan so'ng yaralarga zelyonka(ko'k dori) qo'ying (670-bet) yoki Baneotsin kabi Batsitratsinli antibiotik kremdan surting.
- ◆ Katta maydonga tarqalgan infeksiya yoki yara toshib, isitma chiqqanida penitsillin tabletkalarini (629-bet) yoki Sefaleksin (Suksil, Ospeksin) (646- bet) bering. Agar bemorning Penitsil-linga allergiyasi bo'lsa yoki bu dorilar yordam bermasa, Eritro-mitsin (636-bet) yoki T-iseptol (641-bet) ishlating.

#### **Oldini olish:**

- ◆ Shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qiling (253-bet). Bolalarni har kuni cho'miltiring. Ularni taxtakana va chaqadigan boshqa hashoratlardan saqlang. Agar bola qichima bo'lib qolsa, uni iloji boricha tezroq davolang.
- ◆ Sachratqisi bor bola, boshqa bolalar bilan o'ynamasligi va uxla-masligi kerak. Kasallikning birinchi belgilari paydo bo'lishi bilan oq davolashni boshlang.

## Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

### CHIPQON VA HO'PPOS (ABSSESS)LAR

Chipqon yoki ho'pposlar, teri ostida yiringli xalta paydo bo'lishiga olib kelgan infeksiyadir. Bu tuk yoki jun ildizi infeksiyalangandan kelib chiqishi mumkin. Shuningdek, uchi o'tkir narsa sanchilishi yoki iflos igna bilan qilingan ukol ham bunga sabab bo'la oladi. Chipqon og'riqli va atrofidagi teri qizargan va issiq bo'ladi. U limfa tugunlari shishishi va isitma chiqishiga olib kelishi ham mumkin.



#### **Davolash:**

◆ Chipqon ustiga kuniga bir necha marta issiq kompresslar qo'ying (247-bet).

◆ Chipqon o'zi yorilib chiqishini kuting. U yorilgandan so'ng ham issiq kompresslar qo'ying. Yiring o'zi oqib chiqishini kuting, hech qachon chipqonni ezib siqmang, chunki bu infeksiyaning boshqa qismlarga tarqalishiga olib kelishi mumkin.

◆ Agar, abscess juda qattiq og'risa va 2,3 kunlik issiq kompresslardan keyin ham yorilmasa, yiringi chiqib ketishi uchun uni kesish kerak. Faqat toza va qaynatilgan pichoq ishlatilishi kerak. Bu og'riqni tez oladi. Agar iloji bo'lsa, tibbiy yordamga murojaat qiling.

◆ Agar chipqon limfa tugunlarini shishirib, isitma chiqarsa, penitsillin tabletkalarini (629-bet) yoki eritromitsin (636-bet) iching.

### ALLERGIK TA'SIR NATIJASIDA TARVOQ TOSHISHI (QICHISHADIGAN TOSHMALAR, ESHAKEM)

Ma'lum narsalarni qo'lga olish, yoqmaydigan ovqatlarni iste'mol qilish (ko'proq shokolad, baliq, yong'oq, qulupnay, sut va pomidor), ba'zi dorilarni ukol yoki o'simlik changi; boshqacha to'zonlar bor havodan olish allergik odamlarda qichishadigan toshmalar yoki tarvoq toshishiga sabab bo'lishi mumkin. Ko'proq ma'lumot uchun Allergik Ta'sirlarga (Reaksiyalarga) 307-bet qarang.



Tarvoq, teridan ko'tarilib turadigan qalin bo'rtmalar yoki dog'lar paydo qiladi, ular ari chaqqan joy ko'rinishida va qattiq qichishadigan bo'ladi. Ular tez kelib, tez qaytishi mumkin yoki bitta joydan ikkinchi joyga ko'chib yurishi mumkin.

Har qanday doridan so'ng ro'y bera oladigan reaksiyalarga e'tibor bering, ayniqsa penitsillin ukoli va venaga qilinadigan ukol yoki ot zardobidan qilingan antitoksinlarga ehtiyot bo'ling. Toshma yoki eshakem, dori qilingandan so'ng bir necha minut o'tgandan boshlab 10 kun muddat ichida paydo bo'lishi mumkin.

**Agar biror dori ichilgani yoki ukol qilinganidan so'ng yoki sizga toshma yoki eshakem toshsa, yoki boshqa bir allergik reaksiya ro'y bersa, ushbu dorini ishlatishni to'xtating va umringizda uni qayta ishlatmang!**

**Bu xavfli ! ALLERGIK SHOKning oldini olish uchun juda muhim (159-bet).**

### ***Davolash:***


◆ Sovuqroq suvda cho'miling yoki sovuq suvli kompresslar qiling, sovuqroq suvga namlangan sochiq qo'ying.

◆ Suli(ovsyanka) qaynatmasidan sovuq kompress qo'yish ham qichishishni pasaytiradi. Sulini(ovsyanka) suvda qaynating, uni suzing va suvi sovigandan so'ng ishlating. (Suli o'rniga kraxmal ishlatish ham mumkin.)

◆ Antigistaminlar - allergiyaga qarshi dorilardan foydalaning (677-bet). Agar allergiya sababchisi ovqat bo'lsa, u xolda yuqoridagi ovqatlarini iste'mol qilmang. Tarvoq yo'qolgach, xar 2-3 kunda ulardan bittasini iste'mol qilib, natijasini ko'ring. Tarvoq yo'qolmasa, tibbiy yordamga murojaat qiling.

◆ Bola o'zini qashlamasligi uchun uning tirnoqlarini juda kalta qilib oling, qo'llariga qo'lqop yoki paypoq kiygizib qo'ying.

◆ Qatiq iching (732-bet).





## QICHISHTIRADIGAN YOKI TERINI KUYDIRADIGAN O'SIMLIK VA BOSHQA NARSALAR.

Gazanda - qichitqon o't (krapiva), qulmoq (xmel), anjir barglari va boshqa o'simliklarga tegish teri qavarib ketishiga va qichishadigan toshmalar toshishiga sababchi bo'lishi mumkin. Ma'lum kapalaklar qurti va boshqa hashoratlarning suyuqligi yoki tuklari ham bunday reaksiyalar sababchisi bo'lishi mumkin.



Allergiyasi bor odamlardagi toshmalar yoki „suvli“ yaralar, ma'lum narsalarni qo'lga olish yoki teriga qo'yish natijasida kelib chiqishi mumkin. Rezina poyabzal, soat tasmasi, quloq tomchilari va boshqa dorilar, yuz kremlari, attorlik mahsulotlari yoki sovunlar ham bunday teri muammolariga olib kelishi mumkin.

### ***Davolash:***

Hamma o'zgarishlar, ularni qo'zg'atadigan narsa teriga takroran tegmasa, o'z- o'zidan yo'qolib ketadi. Sulidan(ovsyanka) qilingan atala va sovuq suv qichishishni pasaytiradi. Aspirin yoki antigistaminlar (677-bet) ham yordam berishi mumkin. Og'ir hollarda, siz tarkibida kortizon yoki kortikosteroid gormonlari bor (670-bet) (Gidro kortizon kabi) kremlardan(-surtmalardan) ishlatishingiz mumkin. Infeksiyaning oldini olish uchun, ta'sirlangan joylarni toza tuting.

## BELBOG' (O'RAB OLADIGAN) TEMIRATKI

### **Belgilari:**

Tananing bir tomonida paydo bo'ladigan chiziq yoki og'rib turadigan pufakli dog'lar "belbog' temiratki" bo'lishi mumkin. U ko'pincha orqa, ko'krak, bo'yin yoki betda paydo bo'ladi. Pufaklar ko'pincha 2,3 hafta turadi va so'ng o'z-o'zidan yo'qolib ketadi. Ba'zan og'riq pufaklar yo'qolib ketgandan keyin ham uzoq vaqt davom etadi yoki qaytib keladi.

Belbog' temiratkiga ko'pincha suvchechak virusi sabab bo'ladi, bu virus ko'pincha oldin suvchechak bo'lgan odamlarga ta'sir qiladi.

Bu xavfli kasallik emas. Lekin u ba'zan boshqa jiddiy kasalliklar, rak yoki OITS kabilarning nishonasi bo'lishi ham mumkin.

### **Davolash:**

- ◆ Zararlangan joylar kiyimga ishqalanmasligi uchun ustini yupqaroq qilib bog'lab qo'ying.
- ◆ Og'riqqa qarshi aspirin iching. (Antibiotiklardan foyda yo'q.)



## PO'PANAK, ZAMBURUG'LI INFEKSIYA, TEMIRATKILAR

Zamburug'li infeksiya tananing har qanday qismida paydo bo'lishi mumkin, lekin ko'pincha u:

boshda (soch to'kuvchi temiratki)



sochsiz joylarda



oyoq yoki qo'l barmoqlari orasida



oyoqlar orasida bo'ladi.



Ko'p zamburug'li infeksiyalar uzuk (doira) shaklida paydo bo'ladi. Ular ko'pincha qichishadi. Boshdagi soch to'kuvchi temiratki doira shaklidagi tangacha dog'lar tushishi va soch to'kilishiga sabab bo'ladi. Zamburug' bilan infeksiyalangan qo'l, oyoq tirnoqlari qo'pol va qalin bo'lib ketadi.

### **Davolash:**

- ◆ Sovun va suv. Infeksiyalangan joyni har kuni sovun va suv bilan sovunlab yuvishning o'zi yetarli bo'lishi mumkin.
- ◆ Zararlangan joylarni quruq tuting va u joylarga havo va oftob tegib turishi uchun sharoit yaratishga harakat qiling. Ayniqsa, terlaganingizda ular ho'l bo'lsa, ich kiyim va paypoqlaringizni tez-tez almashtiring.
- ◆ Quyuq yog' va oltingugurt kremi(surtmasini) ishlating (1 qism oltingugurtga 10 qism yog'dan qo'shing). (Sernaya mazga o'xshash.)
- ◆ Undetsilen kislotali maz(surtma) (Mikoseptin), oltingugurt va sirka aralashmasi yoki Klotrimazol (672-bet)lar qo'l va oyoq barmoqlari va chovdagi zamburug'larni yo'qotishga yordam beradi.
- ◆ Boshdagi temiratkining og'ir hollarida yoki har qanday katta joyga tarqalgan zamburug' infeksiyalarida yuqorida aytilgan dorilar yordam bermasa,

kattalar Grizeofulvindan kuniga 1 g. dan, bolalar esa 1/2 g. dan ichishlari kerak. Infeksiyaga to'la davo qilish uchun uni haftalab, hatto oylab ham ichish kerak bo'lishi mumkin (672-bet).

◆ Boshdagi temiratkilar ko'pincha bola balog'atga (11 dan 14 yoshgacha) yetganda yo'qolib ketadi. Katta shish, yiringli dog'larga sabab bo'ladigan og'ir infeksiyalarga issiq kompresslar (247-bet) bilan davo qilish kerak. Zararlangan joydan hamma sochlarni olib tashlash muhimdir. Iloji bo'lsa, grizeofulvin ishlatilg.



### **Zamburug'li infeksiyalarning oldini olish:**

Temiratki va boshqa zamburug'li infeksiyalar yuqumlidir (oson tarqaladigan). Bitta boladan boshqalarga tarqalishining oldini olish uchun:

- ◆ Zamburug'li infeksiyasi bor bola boshqa bolalar bilan uxlamasin.
- ◆ Bolalarning bitta taroqdan foydalanishi yoki bir-birlarining sochiq va kiyimlarini ishlatishlariga yo'l qo'ymang. Sochiq va kiyimlar yuvilganidan so'ng ishlatilishi mumkin.
- ◆ Infeksiyalangan bolani tez davolang.

### **TANA VA BETDAGI OQ DOG'LAR**

**Rangli har xil temiratki** - yengil zamburug'li infeksiya bo'lib, odam ular bilan kasallanganda kichik qoramtir yoki ochroq tusli, notekis yoki aniq qirg'oqli dog'lar paydo bo'ladi. Ular ko'pincha bo'yin, ko'krak va orqada bo'ladi. Dog'lar aksari, biroz po'st tashlab turadigan bo'lishi mumkin, lekin ko'pincha qichishmaydi.



### **Davolash:**

◆ Oltingugurt va quyuq o'simlik yog'i qo'shilgan „Sernaya maz”-ga o'xshash krem suring (1 qism oltingururtga 10 qism o'simlik yog'i qo'shing) va ushbu kremni dog'lar yo'qolib ketgunga qadar har kuni surkab turing. Yoki zamburuqqa qarshi Klotrimazolga o'xshash kremlardan ishlating(672-bet).

◆ Dog'lar qayta paydo bo'lishining oldini olish uchun ko'pincha ushbu davolash usulini har 2 haftada qaytarishga to'g'ri keladi.

◆ Selen sulfid (672-bet) ham yordam berishi mumkin. Qazg'oqqa qarshi ba'zi shampunlar tarkibida ana shu modda bo'ladi.



Shuningdek, oftobda ko'p yuradigan qora-to'ri bolalar yuzida paydo bo'ladigan **kichik oqish dog'lar ham** bor. Ularning qirg'oqlari rangli temiratkidagidan farq qilib, bilinar-bilimas bo'ladi. Ushbu dog'lar infeksiya emas va ularga ahamiyat bermang. Ular odatda bola katta bo'lgan sari yo'qolib ketadi. Maxsus davo usullarining keragi yo'q.

Umumiy fikrga qarshi bo'lsa ham aytaylik, ushbu oq dog'lar badanda qurt yoki kamqonlik borligidan nishona emas. Quvvat beruvchi dori yoki vitaminlar yordam bermaydi.

Bolalar badanidagi tarqoq umumiy yoki ola-bula dog'lar, qisman teri va soch rangi yo'qolishining sababi ovqatga yolchimaslik bo'lishi mumkin (kvashiorkor 226-bet, pellagra 392-bet). Agar bolaning oq dog'lari bo'lsa, og'zining chetlari bichilsa va vazni ortmay qo'ysa, siz unga ko'proq oqsilga boy ovqatlar berishingiz kerak (11-bobga qarang).

**OGOHO BO'LING:** Ba'zan oqish dog'lar moxovning (359-bet) dastlabki belgilari bo'lishi mumkin. Moxov dog'lari hech qachon oppoq bo'lmaydi va nina, to'g'nag'ich sanchib ko'rilganda sezgi pasayganini aniqlash mumkin. Agar siz yashaydigan joyda moxov kasalligining shu tariqa yo'qolishi-dog' tushishi bo'lsa, bolangizni tekshirtiring.

## PES (TERIDAGI OQ JOYLAR, VITILIGO)

Ba'zi odamlar badanining ma'lum joylarida teri o'zining tabiiy rangi (pigmentini) ni yo'qotadi, natijada terida oq dog'lar paydo bo'ladi. Bu ko'pincha qo'l, oyoq, bet va tananing yuqori qismlariga xosdir. Teri rangining shu tariqa yo'qolishi, dog' tushishi - pes deb ataladi. U kasallik emas, qari odamlar sochining oqarishiga o'xshash bir hodisa, xolos. Terining oqargan joylarini kiyim bilan yoki rux (sink)li maz (surtma) bilan oftobdan saqlash kerak. Rang beruvchi maxsus krem-lar oqargan joylarni kamroq bilinadigan qilish mumkin. Vitiligosi kuchli bo'lgan odamlar, teri kasalliklari shifokori bilan oqartiruvchi dorilarni ishlatish bo'yicha maslahatlashishlari kerak.



## HOMILADORLIK "NIQOBI" (DOG' TUSHISHI)

Homiladorlik davrida ko'p ayollarning yuzi, ko'kragi va qornida qora dog'lar paydo bo'ladi. Ba'zan ular bola tug'ilgandan so'ng yo'qolib ketadi, ba'zan esa yo'qolmaydi. Ba'zan bunday dog'lar homiladorlikdan saqlovchi dorilarni ichuvchi ayollarda ham paydo bo'lishi mumkin.

Bu normal holat bo'lib, kam quvvatlilik yoki kasallik belgisi emasdir. Hech qanday davoning keragi yo'q.




## PELLAGRA VA OVQATGA TO'YMASLIKKA ALOQADOR BOSHQA TERI KASALLIKLARI


Pellagra ovqatga to'ymaslikning (yolchimaslikning) bir turi bo'lib, u teri va ba'zan hazm qilish va asab sistemasiga ta'sir qilishi mumkin. Bu kasallik aksari odamlarning asosan jo'xori, kraxmalli ovqatlar bilan ovqatlanib, loviya, mosh, go'sht, baliq, tuxum, sabzavot kabi "tana o'stiruvchi" va "himoyalovchi" ovqatlardan (222-223-betlar) yetarli iste'mol qilmasliklaridan kelib chiqadi.

*Ovqatga yo'lchimaslikning teridagi nishonalari (quyidagi rasmlarga qarang):*

Pellagra kattalarda bo'lsa: badan terisi quruq va yorilgan bo'ladi; quyosh tekkani joylar quyosh kuydirgandek archilib tushadi, ayniqsa:



Ovqatga yolchimagan bolaning oyoq terisi (ba'zan qo'llarida ham)da ko'kargandek qora dog'lar yoki hatto archiladigan yaralar ham bo'lishi mumkin, ba'zan to'piq va oyoqlari shishib chiqadi. (226-bet).



Shu belgilar bilan bir qatorda, ko'pincha ovqatga yolchimaslikning boshqa belgilari ham bo'ladi, bular: shishgan qorin, og'iz bichilishi, tilning qizarib og'rib turishi, quvvatsizlik, ishtaha yo'qolishi, vazn ortmasligi va boshqalar (11- bob, 224-226-betlar). Pellagrada odatda ich ketar, fikr chalg'iyverishi singari hodisalar ham uchraydi. Ba'zan ko'zning oqi ko'kish bo'lib ko'rinadi.

### **Davolash:**

◆ **To'yimli ovqatlardan iste'mol qilish pellagrani yo'qotadi.** Bemor odam har kuni loviya, mosh, yer yong'oq, tovuq, baliq go'shtlaridan, tuxum yoki pishloq iste'mol qilishga harakat qilishi kerak. Agar sharoitingiz to'g'ri kelsa, makkajo'xori o'rniga bug'doy ishlatganingiz ma'qul (kepakli bo'lsa yana ham yaxshi).

◆ Pellagraning og'ir turlarida va ovqatga yolchimaslikning boshqa ko'rinishlarida vitaminlar olish foyda qilishi mumkin, **lekin yaxshi ovqatlanish muhimroq.** Siz olmoqchi bo'lgan dori B vitaminiga va ayniqsa, nikotin kislotasiga boy bo'lsin. Drojji (xamirturush) - B vitaminiga boydir.



Yaxshi ovqatlanishdan oldin



Yaxshi ovqatlanishdan keyin



Ushbu bolaning oyoqlaridagi shishish va qora dog'lar yaxshi ovqatlanmaslikning natijasidir. U vitamanga va proteinga boy bo'lgan ovqatlarni yeyish o'rniga asosan makkajo'xorini iste'mol qilgan.

Bir hafta davomida makkajo'xori bilan birgalikda loviya va tuxum yeyishni boshlagan bu bolada shishish va qora dog'lari deyarli yo'qolib ketgan.





Ushu ayolning oyoqlaridagi "kuygan" dog'lar pellagraning belgisidir. U ham yaxshi ovqatlanmagan.



Ushbu ayolning oyoqlaridagi oq dog'lar yuqumli pinta kasalligidir.

## SO'GALLAR

Ko'p so'gallar, ayniqsa bolalardagi so'gallar 3- 5 yil davom etadi va so'ng yo'qolib ketadi. Oyoq tagidagi yupqa, so'galga o'xshash og'riqli dog'lar ko'pincha „tovon so'gallari" bo'lib chiqadi. (Yoki ular qadoq bo'lishi mumkin. Quyidagilarga qarang.)

### **Davolash:**

◆ Uy sharoitidagi ba'zi davolar ham ko'pincha so'gallardan xalos qiladi. Kuchli ishqorlarni yoki zaharli o'simliklarni ishlatmagan ma'qul, chunki ular teri kuyishi yoki yaralar paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.



- ◆ Og'riqli oyoq ostidagi so'gallar ba'zan shifokor tomonidan olib tashlanishi kerak bo'ladi.
- ◆ Jinsiy organlardagi va peshovdagi so'gallar xususida 293-betga qarang.

## QADOQLAR

Terining qavarchib qattiq va qalin bo'lib qolgan joyidir. U tufli teriga tegib turadigan yoki oyoq barmoqlari bir-biriga ishqalanadigan joylarda, shuningdek, qo'llarda paydo bo'ladi. Qadoqlar og'riqli bo'lishi mumkin.

### **Davolash:**

- ◆ Qadoq joylarga tegmaydigan tufli yoki etik kiying.
- ◆ Qadoq joylar og'rig'ini kamaytirish uchun quyidagilarni qiling:


1. Oyoq'ingizni iliq suvga 15 minutga soling.



2. Tirnoqlarga ishlatiladigan egov yordamida qavariq yupqalashgunga qadar ishqalang.



3. Qadoqning tufliga ishqalanmasligi uchun unga tegmaydigan qilib yumshoq patak (taglik) qo'ying. Oyoq yoki barmoqni yumshoq lattaga o'rang va qavarchiq bor joyini teshib qirqib qo'ying.



## BO'JAMA VA HUSNBUZARLAR

Yoshlarning, ayniqsa, ularning terilari yog'li bo'lsa, yuz, ko'krak yoki orqalarida *bo'jamalari* bo'ladi. Bo'jamalar *mayda toshma* ko'rinishida bo'lib, uchlar yiring yoki kir to'planganidan qora bo'lishi mumkin. Ba'zan ular og'riqli va kattalashib ketgan bo'ladi.




### **Davolash:**

- ◆ Yuzingizni kuniga 2 mahal issiq suvda sovunlab yuving.
- ◆ Boshingizni, iloji bo'lsa, har 2 kunda yuving.
- ◆ Quyosh nuri bo'jamalarni yo'qotadi. Ular bor joylarga ko'proq quyosh tushsin.
- ◆ Iloji boricha yaxshi ovqatlaning, ko'p suv iching va yetarli uxlang.
- ◆ Yog'li teri va soch losyonlarini ishlatmang.
- ◆ Yotishdan avval yuzingizga spirt bilan oltingugurt aralashmasidan (10 qism spirt ga 1 qism oltingugurt) (sernaya maz) surting.
- ◆ Husunbuzarlar tagi shishib, yiring to'plaganida, yuqoridagi usullar yordam bermasa, tetratsiklin foyda qilishi mumkin. 250 ml. li dori kapsulalarini 3 kun davomida 4 mahal va keyinchalik 2 mahal iching. Kuniga 1-2 kapsulani ichish oylab davom etishi kerak bo'lishi mumkin. (Bolalar hamda homilador ayollar tetratsiklin ichmasliklari kerak. Uning o'rniga eritromitsin ishlatilishi mumkin.)

## TERI RAKI

Teri raki aksari ko'p vaqtini o'tobda o'tkazadigan oq badan odamlarda uchraydi. U odatda doim quyosh nurlari tushib turadigan joylarda paydo bo'ladi, ayniqsa:



Teri raki har xil ko'rinishda bo'lishi mumkin. U odatda o'rtasi bo'sh turgan marvarid rangli kichik doiracha ko'rinishida boshlanadi. Asta-sekin kattalashib boradi.

**Teri rakiga vaqtida davo qilinsa, u xavfli emas.** Jarrohlik yo'li bilan olib tashlanadi. Agar sizda surunkali yara bo'lsa, tibbiyot xodimiga murojaat qiling.

Teri rakining oldini olish uchun yupqa terili odamlar o'zlarini oftobdan saqlashlari va doim shlyapa kiyib yurishlari kerak. Quyoshda ko'p ishlashga majbur bo'lgan odamlar terini himoyalovchi kremlar sotib olishlari mumkin. Ruhli maz ham arzon, ham foydalidir.


## TERI VA LIMFA TUGUNLARINING SILI

O'pka siliga olib keluvchi mikroblar ba'zan teriga ham ta'sir qiladi va quyidagi og'riqsiz narsalarga olib keladi:



Odatda, teri sili sekin rivojlanadi. U uzoq davom etadi va bir necha oy va yilda takrorlanishi mumkin.

Shuningdek, sil, ko'pincha bo'yin limfa tugunlari yoki o'mrov suyagi, yelka va bo'yin orasidagi limfa tugunlarini yalig'lantiradi. Tugunlar kattalashadi, yorilib, yiring chiqadi, vaqtincha berkiladi va so'ng yana yorilib yiring chiqadi. Odatda ular og'rimaydi.




### **Davolash:**

Agar sizda surunkali yara yoki shishgan limfa tugunlar bo'lsa, tibbiy yordamga murojaat qilish eng oqil fikrdir. Sababini aniqlash uchun tekshiruv kerak bo'ladi. Teri sili o'pka sili (342-bet) kabi davolanadi. Infeksiya qaytalanishining oldini olish uchun, teri yaxshi bo'lib ketgandan keyin ham dorilarni bir necha oy ichish kerak bo'ladi.

## SARAMAS VA SELLYULIT

**Saramas** - qattiq og'riq bilan o'tadigan (birdan boshlanadigan) teri infeksiyasidir. Bunda terida tez tarqaladigan, qip-qizarib lovullab turadigan, chetlari aniq chegaralangan shishgan dog' hosil bo'ladi. U ko'pincha yuzda paydo bo'lib, burunning chetlaridan boshlanadi. Kasallik odatda limfa tugunlarining shishishi, isitma va et uvishishiga olib keladi.




**Sellyulit** ham juda og'riqli, o'tkir teri infeksiyasi bo'lib, tananing turli joylarida boshlanishi mumkin. U ko'pincha teri shikastlangandan keyin paydo bo'ladi. Infeksiya chuqurroq bo'ladi va chegaralari saramasga nisbatan uncha bilinmaydi.

### **Davolash:**

Saramas hamda sellulit boshlanishi bilanoq, tezda davolinishi lozim. Quyidagi antibiotiklar ishlatilishi kerak: Fenoksimetil penitsillin tabletkalari, 4 mahal 400.000 ED. dan beriladi, jiddiy hollarda 800.000 ED. dan Benzilpenitsillin-novokain ukol qilinadi (632-bet). Infeksiya belgilari yo'qolib ketganda ham antibiotiklar yana 2 kun ichilishi kerak. Shuningdek og'riqqa qarshi issiq kompresslar qilib aspirin iching. Agar bular yordam bermasa, Sefazolin (Kefzol) qabul qiling.

## QORASON (GANGRENA)

Bu juda xavfli jarohat infeksiyasi bo'lib, bunda jarohatdan sassiq hidli yoki jiggar rang suyuqlik chiqib turadi. Jarohat atrofidagi terida qoramtir suvli pufaklar va jarohat etida havoli pufakchalar bo'lishi mumkin. Infeksiya odam jarohatlanganidan so'ng 6 soatdan 3 kungacha bo'lgan vaqtda boshlanishi mumkin. U juda tez zo'rayadi va tarqaladi. Kasallikka davo qilinmasa, u bir necha kunda o'limga olib keladi.



### **Davolanish:**

◆ Jarohatni iloji boricha kattaroq qilib oching. Uni qaynatib sovutilgan suv bilan sovunlab yuving. O'lik va shikastlangan etlarni olib tashlang. Agar iloji bo'lsa, jarohatga har 2 soatda Vodorod peroksidi quyib turing.

◆ Har 4 soatda 1 g. hisobidan Penitsillin ukolini qiling. Agar imkon-ingiz bo'lsa, har 8 soatda 900 mg. dan Klindamitsin qiling. Seftriakson va Sefotaksimlar ham ishlatilishi mumkin.

◆ **Jarohatga havo tegib turishi uchun ochiq qoldiring. Tibbiy yordamga murojaat qiling.**


## QON AYLANISHINING YOMONLIGIDAN (SUSTLIGIDAN) KELIB CHIQUADIGAN YARALAR

Teridagi yaralar yoki katta ochiq jarohatlarning turli sabablari bo'lishi mumkin (374-bet). Katta yoshdagi odamlar, ayniqsa, venalari shishgan va kengaygan (varikoz) ayollarning to'pig'idagi surunkali yaralar, odatda qon aylanishining yomonligidan kelib chiqadi. Bu - oyoq qon tomirlarining torayishi natijasida qonning yetarli darajada tez aylanmasligi oqibatidir. Bunday yaralar juda kattalashib ketishi mumkin. Yara atrofidagi teri to'q ko'k rangda, yaltiroq va juda yupqa bo'lib turadi. Ko'pincha oyoqlar shishgan bo'ladi.



### **Davolash:**

◆ Bunday yaralar faqat katta e'tibor berilsagina tuzaladi, lekin juda sekin tuzaladi. Eng muhimi: oyog'ingizni iloji boricha tez-tez baland tuting. Uxlayotganingizda oyog'ingiz ostiga bolish qo'yib yoting. Kun davomida oyog'ingizni 15-20 minut ko'tarib qo'ygan holda dam oling. **Yurish qon aylanishiga foydali, ammo bir joyda turish va oyoqni yig'ib yoki osiltirib o'tirish zararlidir.**



◆ Yaraga biroz tuzli suv bilan (1 choy qoshiq tuzni 1 litr qaynatilgan suv) iliq kompresslar qo'ying. Yarani bo'sh qilib, steril bint yoki toza latta bilan bog'lang. **Uni toza tuting.**

◆ Venalarning shishini qaytarish uchun cho'ziluvchan (elastik) chulki yoki oyoqni bog'lamlar bilan bog'lang. Yara tuzalgandan so'ng ham oyog'ingizni baland ko'tarib yotishni odat qiling. Yara ustini qoplagan nozik pardani shilib olmaslikka yoki jarohat yetkazmaslikka harakat qiling.




◆ Yaralarni asal yoki shakar yordamida davolash ham yordam berishi mumkin (400-bet).

**Teri yaralarining oldini olish uchun, shishgan venalarga ertaroq e'tibor bering (327-bet).**

## YOTOQ YARALARI

Ha deganda tuzalavermaydigan bunday yaralar, doim bir joyda yotib, boshqa yoniga ag'darila olmaydigan og'ir kasal odamlarda, ayniqsa, ozg'in, quvvatsiz, qari bemorlarda ko'p uchraydi. Yaralar kasal badanining suyakdan bosilib turadigan qismlarida hosil bo'ladi. Ular ko'pincha dumba, bel, yelka, tirsak yoki oyoqlarda bo'ladi.



- ◆ Bemorning tagiga uning suyaklari kamroq botadigan qilib bolishlar qo'ying.
- ◆ Kasalni iloji boricha yaxshi ovqatlantiring. Agar u yaxshi ovqatlanmasa, qo'shimcha vitamin va tarkibida temir moddasi bor tabletkalar yordam berishi mumkin (233-bet).
- ◆ Og'ir va surunkali kasallik bilan og'riyotgan bolani onasi tez-tez quchog'ida olib o'tirishi kerak.

***Davolash:***


- ◆ Yuqorida aytilganlarning barchasini qiling.
- ◆ Yaralarni qaynatilgan iliq va biroz atir sovunli suv bilan 3 mahal yuving. Har qanday o'lik etni olib tashlang. So'ng yaxshilab qaynatilgan iliq suvda chayqang.
- ◆ Infeksiyaga qarshi kurashish va tuzalishni tezlashtirish uchun yaraga asal, shakar yoki quyuq qiyom (asal va shakardan qilingan) qo'ying. Yaralarni kuniga kamida 2 mahal tozalab turish muhimdir. Agar qo'yilgan asal yoki shakar yaradan chiqayotgan suyuqlik bilan aralashib uzoq qolib ketsa, unda ular mikroblarni o'ldirish o'rniga ularga oziq bo'ladi.



## CHAQALOQLARDA UCHRAYDIGAN TERI KASALLIKLARI


### Teri Bichilishi

Chaqaloqning chovidagi yoki dumbalarida qizg'ish dog'lar paydo bo'lishi, ho'l ko'tlik (yo'rgak) va yotgan joydagi siydik natijasida bo'lishi mumkin.



### Davolash:

- ◆ Bolani har kuni iliqroq suvda biroz sovunlab yuving. Badanini asta-sekin quriting.
- ◆ **Toshmalarning oldini olish yoki davolashda bola yalang'och, yo'rgaksiz bo'lishi kerak. Bolani oftobdan bahramand qilib turish lozim.**



**ENG YAXSHISI  
YALANGOCH QO'YISHDIR**

- ◆ Agar ko'tlik-yo'rgak ishlatsangiz, ularni tez-tez almashtirib turing. Ko'tlik-yo'rgaklarni yuvib bo'lganingizdan so'ng, biroz sirkali suvda chayqang.
- ◆ Gigiyenik kukun (Bolalar sepmasi) ishlatmaganingiz ma'qul, agar siz uni ishlatsangiz, toshma yo'qolib ketganidan so'ng ishlating.

### Qoqach, Qazg'oq


Ushbu kasallikda chaqaloq boshida yog'li, sariq yuza paydo bo'ladi. Teri ko'pincha qizarib turadi va ta'sirchan bo'lib qoladi. Bu ko'pincha bolaning boshi yetarli yuvilmaganidan yoki boshiga havo tegmaganidan kelib chiqadi.



**Davolash:**

- ◆ Boshni har kuni yuving. Iloji bo'lsa, sovun (670-bet) bilan yuving.
- ◆ Barcha qazg'oq va qattiq yuzali qatlamlarni asta tozalang. Tangachalar va kirlangan yuzani bo'shatish uchun boshni avval iliq suvga namlangan sochiq bilan o'rab iviting.
- ◆ Boshga havo va quyosh nurlari tegishi uchun bolaning boshiga **hech narsa kiydirmang.**

BOLA BOSHINI  
SHAPKA YOKI BOSH  
KIYIM BILAN O'RA-  
MANG. BOSHNI  
YALANG TUTING



**ENG YAXSHISI  
BOSHINI YALANG QO'YISHDIR**

- ◆ Agar u yerda infeksiya belgilari bo'lsa, uni Sachratqi (impetigo)ni davolagandek davolang (383-bet).

**EKZEMA (GUSH)  
(SUVLI KICHIK PUFAKCHALARI BOR QIZIL DOG'LAR)**

**Belgilari:**

◆ Yosh bolalarda: yuz, ba'zan bilak va qo'llarda qizil dog' yoki toshmalar paydo bo'lishi. Toshmalar kichik yarachalar, suv to'plagan yoki suvlanayotgan (yorilib, suyuqlik oqib chiqadigan) pufakchalardan tashkil topgan bo'ladi.

◆ Kattaroq bolalarda va yoshlarda: ekzema odatda quruqroq bo'ladi va ko'proq tizza va tirsak orqasida uchraydi.

◆ U infeksiya kabi boshlanmaydi, lekin ko'pincha allergik reaksiyaga o'xshab ketadi.



## **Davolash:**

- ◆ Toshmalarga sovuq kompresslar qiling.
- ◆ Infeksiya belgilari paydo bo'lsa (186-bet), impetigodek davolang (383-bet).
- ◆ Dog'larga quyosh nuri tushsin.
- ◆ Og'ir hollarda 1% li Hidrokortizon mazidan (surtmasidan) foydalaning (670-bet). Tibbiy xodimdan maslahat oling.

## PSORIAZ


### **Belgilari:**

Terida oqish yoki kumush rang tangachalar bilan qoplangan qizg'ish yoki ko'kish tusli qalin va dag'al dog'lar paydo bo'lishi. Dog'lar ko'pincha rasmda ko'rsatilgan joylarda paydo bo'ladi.

Ushbu hol ko'p vaqt davom etadi yoki qayta-qayta takrorlanadi. Bu yuqadigan va xavfli kasallik emas.

### **Davolash:**

- ◆ Zararlangan joyni quyosh nuri tegadigan qilib qoldirish ko'pincha foyda beradi.
- ◆ Ba'zan dengizda cho'milish ham yordam beradi.
- ◆ Tibbiy maslahat oling. Davolash uzoq vaqt davom ettirilishi kerak.



## ZAMBURUG'LI INFEKSIYA, KANDIDAMIKOZ (PO'PANAK)

Sababchisi alohida turdagi zamburug'. Juda qattiq qichishadi, o'rtasi qip-qizil, atrofida esa qizil dog'lar bo'ladigan toshmadir. U ko'pincha tananing issiqroq joylarida paydo bo'ladi: chovda, qo'ltiqda, ko'kraklar ostida yoki yog'li teri qatlamlari orasida. Shuningdek, u ko'pincha jinsiy organ, yorg'oq va ikki dumba orasida bo'lishi ham mumkin. Og'izdagisi juda og'riqli va pushti joydagi oq dog'larga o'xshaydi. U, shuningdek, lab bi-

chilishiga ham sabab bo'ladi. Ba'zan kandidamikoz qaytalanaverishi yoki davolasa ham yo'qolmasligi mumkin, bunda odamni unda SPID(OITS) bor yo'qligiga tekshirtirish kerak.

**Kandidamikoz: Esingizda tuting! U faqat tananing issiq, nam joylarida paydo bo'ladi.**

### ***Davolash:***

- ◆ Tez-tez cho'milish bilan oldini olish mumkin.
- ◆ Nistatin, Klotrimazol yoki Ketokonazollar bilan davolang.
- ◆ Tez-tez yuvish, quritish va bolalar sepmasi (detskaya prisipka, 670-675 betlar) ishlatish ham yordam berishi mumkin.
- ◆ Zaralangan joyni har kuni 30 minutdan quyosh nuriga tutish (oynadan o'tgan nur emas) uni odatda tamoman yo'qotadi. Tezlik bilan davo qilish shart. Agar tez davolanmasa, qichishish chidab bo'lmas darajada zo'rayib ketadi.
- ◆ Og'izdagi kasallikka nistatin ishlatgan ma'qul.

## G'UMBAK (TERI OSTIDAGI QURTLAR VA STRONGILOIDOZ)

Teri ostida sudralib yuruvchi qurtlarning ko'p turlari ko'rinadigan qizil chiziqlarga sabab bo'ladi va ularning harakati ba'zan seziladi (ular oq dog'larni keltirib chiqarmaydi). Bolalar bu kasallikni iflos tuproqda yalang oyoq yurish yoki uni yeyish orqali yuqtirib oladilar.

It axlati bilan ifloslangan narsani iste'mol qilish kasallikning og'irroq turlariga olib kelishi mumkin. Og'irroq turlari organlarga ta'sir qilib, sariq kasalligi, jigarning ishdan chiqishi, miyaga qon quyilishi, tutqanoqni keltirib chiqarib hatto o'limga ham olib kelishi mumkin.

### ***Davolash:***

- ◆ Albendazol yoki Tiabendazollar foydalidir.
- ◆ Mebendazol va pirantellar kamroq foyda qiladi.

### ***Oldini olish:***

- ◆ Uy hayvonlaringizni qurtlarga qarshi davolang va ularni oziq-ovqatlarni iflos qilib qo'yishi mumkin bo'lgan joylardan uzoqroqda tuting.

- ◆ Bolalar tashqarida yurganlarida oyoq kiyimlarini kiyishlari va ovqatdan oldin qo'llarini yuvishlari kerak.

### KUYDIRGI (SIBIRSKAYA YAZVA)

Kuydirgi O'zbekiston hududlarida kam uchraydigan bakterial infeksiyadir. Ko'pincha, bu kasallik hayvonlar terisi yoki qo'y junlari bilan ishlovchi odamlarda bo'ladi. Shunga qaramay, har qanday odam bu kasallikka chalinishi mumkin, chunki bakteriya havoda bo'lishi ham mumkin. Jun bilan ishlovchilar og'ir o'pka shamollashi (zotiljam, pnevmoniya)ga olib keluvchi o'pka infeksiyasiga chalinishlari mumkin. Ba'zan u qonli ich ketishga ham olib kelishi mumkin.

Bu kasallik odatda bet, bo'yin yoki qo'llarda yaralar hosil qiladi. Yaralar kichik qizil dog' bo'lib boshlanadi, so'ng pufakka aylanadi, keyin esa qorayadi va atroflari jigar rang va shishgan bo'ladi. Yiring bo'lmaydi. U qichishishi mumkin, ammo odatda unchalik og'rimaydi. Ba'zan odam davolanmasdan ham bir necha haftada tuzalib ketadi. Lekin ba'zan yara bo'lgan joy qattiq ogriydi, odam harorati ko'tariladi va davolanmasa o'lib qolishi ham mumkin.

#### **Davolash:**

- ◆ Penitsillinning katta dozalari bilan davolashni boshlang va uni 7-10 kun qiling. Penitsillinga allergiyasi bor odamlar Eritromitsin, Doksitsiklin yoki Levomitsetin qabul qilishlari mumkin.
- ◆ Zararlangan joyni sovunlab yuving va ustini toza bog'lam bilan berkiting

**OGOHO BO'LING:** Bu yuqumli kasallik, shuning uchun bog'lamlarni ishlatib bo'lgandan so'ng yondirib yuboring. Ishlatilgan bog'lamlarni yechib olayotganingizda va ularni yondirayotganingizda og'zingizni ro'molcha bilan berkiting, jarohatni tozalaganingizdan so'ng, qo'llaringizni yaxshilab sovunlab yuvish esingizdan chiqmasin.

#### **Oldini olish:**

- ◆ Odamlar va hayvonlarga em dori ishlatilishi mumkin.
- ◆ Biror odamni kuydirgiga qarshi davolayotganda, uni ogohlantirishni yodingizda tuting, chunki u tanadan chiqadigan suyuqliklar orqali yuqadigan kasallikdir.